

## SHONLI TARIXIMIZ RASSOM NIGOHIDA



**Eshmamat Xaitov**

MRDI kafedra mudiri, dotsent

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19662782>

**Annotasiya.** Ushbu maqola taniqli ijodkor, o‘zining mahobatli rangtasvir asarlari bilan nafaqat yurtimizda hatto uning tashqarisida ham yaxshi tanilgan mo‘yqalam ustasi, tarixiy mavzularning benazir vakillaridan biri akademik Alisher Aliqulov faoliyatiga bag‘ishlanadi.

**Kalit so‘zlar:** mahobatli rangtasvir, ustoz-shogird an‘analari, tarixiy asarlar, milliy sport mavzusi, mahobatli devoriy tasvirlar, portretlar.

O‘zbekiston Respublikasi san‘at arbobi, “Shuhrat” medali sohibi, O‘zBA akademigi Alisher Aliqulov ijodi istiqloq yillarida shakllanib, milliy rangtasvir san‘atida tobora yangi pillapoyalarga ko‘tarilib bormoqda. Ijodkor 1966-yil 20-noyabr kuni Toshkent shahrida tavallud topgan. Unda tasviriy san‘atga bo‘lgan qiziqish bolaligidan boshlangan. 1987-1995 yillar Respublika rassomlik kollejida dastlabki saboqni oladi. Taniqli mo‘yqalam ustalari V.Petrov va M.Umarovlar unga rangtasvir sirlarini o‘rgatadilar. 1995-yilda Toshkent davlat san‘at (hozirgi Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn) instituti, tasviriy san‘at fakultetida tahsil olgan. Markaziy Osiyoda badiiy ta‘limga ixtisoslashgan yagona oliy ta‘lim muassasi bo‘lmish mazkur dargohda bir qator ustoz musavvirlardan saboq oladi. Rassomning ijodi o‘tgan asrning to‘qsoninchi yillariga to‘g‘ri keladi. Uning iqtidori talabalik davridayoq namoyon bo‘la boshlagan edi. Institutda tahsil olgan kezlari ustoz rassomlar - G‘ofur Qodirov va Rustam Xudayberganovlardan rangtasvir sirlarini sidqidildan o‘zlashtiradi. Natijada birin ketin ko‘rgazmalarda o‘z asarlari bilan ishtirok eta boshlaydi. 1992-yili yaratilgan “Ikki dunyo” asari tomoshabinni chuqur mushohadaga chorlaydi. Unda azaliy qadriyatlarimizning toptalishi, maqbaradan sal uzoqroqda oq libosdagi xarbiylarning miltiq uqtalib maqbaraga qarab turishi orqali o‘z munosabatini tomoshabinga yetkazayotganday taasurot qoldiradi. Uning talabalik yillarida ishlagan diplom mavzusi “Buyuk imperiyaning halokati” nomli asari hozirda o‘zi tahsil olgan institutda saqlanadi.

Alisher Aliqulov keng doiradagi, turli yo‘nalishlarni o‘zlashtirgan, asarlari mavzusini aniq chegaralamaydigan ijodkor. U rangtasvirning ham mahobatli ham dastgohli turida birdek asarlar yaratadi. Rassomning milliy sport o‘yinlarimizga bag‘ishlab yaratilgan “Uloq” asari san‘at ixlosmandlarida katta taasurot qoldirdi. San‘at olamidagi birinchi qadamidayoq rassom o‘z asarlarida kuchli dinamik harakatga va chuqur falsafiy kompozitsion yechimga asoslangan o‘ta qiyin badiiy ifoda uslubini tanladi va bu boradagi yuksak mahorat bilan san‘atshunoslar e‘tiboriga tushdi. Asarning markaziy qismida son-sanoqsiz chavandozlarning chuqur ruhiy holatlardagi qiyofalari, maydondagi pishqirib uloqqa intilayotgan otlarning harakatidan yerdan ko‘tarilayotgan chang-to‘zonlarning aniq aks etishi tomoshabinlarni hayratga soladi. Bu holatni qahramonlar tashqi ko‘rinishlari, nigohlari, yuz va ko‘z ifodalari liboslarida ham kuzatish mumkin. Voqealar makonining ortidagi fazoviy kenglikdagi tabiiy muhit, borliqdagi ko‘rinishlar, lahzalar tasviri real obrazlarda ifodalangan. Keyinchalik yaratgan “Chavgon” asari esa o‘tmishda harbiy jismoniy

san'at darajasiga ko'tarilib, keyinchalik unutilib ketgan milliy o'yinlarimizga bo'lgan muhabbatining bir ko'rinishi – bobomeros qadriyatlarimiz targ'ibiga bag'ishlangan asarlarining mantiqiy davomidir. Shunday asarlar sirasiga uning 1996-yili Vatanimizda bunyod etilgan Olimpiya shon-shuhrati muzeyiga atab ishlagan “Qadimgi Baqtriya sport o'yinlari” nomli pannosini ham kiritish mumkin. Unda kuchli, zabardast, epchil, chaqqon va mard o'g'lonlarimizning sport olamidagi jasoratlari, shijoatlari kuchli dinamik harakatda ifodalangan. Realistik yo'nalishdagi ko'pfigurali murakkab kompozitsiyada “Uloq”, “Kurash”, “Poyga”, “Yoyandozlik”, “Nayza uloqtirish”, “Tosh ko'tarish”, kabi azaliy o'yinlarimiz tasviri tomoshabinlarni go'yo uzoq moziy tomon sayohatga chorlayotganday taasurol uygotadi.

Rassomning talabalik yillarida (1995) yaratgan “Feodallar urushi” asari tomoshabinni har tomonlama jiddiy mushohadaga chorlaydi. Undagi har bir kichik qiyofa, obraz oldindan o'ylangan, hayolda pishirilgan aniq eskiz asosida ishlangani seziladi. Batal janridagi mazkur mahobatli asar uzoq va yaqin moziydan so'zlaydi. Unda milliy rangtasvirimizda jang manzaralarining muloqo yangicha talqini kuzatiladi.

Ijodkor asarlarining aksariyat qismi ulug' bobokalonimiz, buyuk sarkarda va tengsiz hukmdor Amir Temurning jang manzaralari, saroy muhiti, undagi turfa xil odamlar va taqdirlar tasviriga bag'ishlangan. Xususan, 1996-yilda Temuriylar tarixi davlat muzeyi zali uchun ishlangan “Samarqand bozori” nomli asarida milliy koloritdagi mahalliy qiyofalarning o'zaro to'qnashuvi, bozorning ayni hayot qaynagan, odamlar bilan gavjumlashgan kayfiyatini to'liq ocha olgan. Kompozitsiyada bozor maydonidagi o'z mahsulotlarini yoyib o'tirgan kosiblar, matofurushlar, gilamdo'zlar, beshikchilar, hammollar, haridorlar va xorijiy ajnabiylar ham birga tasvirlanishi uning bu borada tarixiy manbalarni anchagina o'rgangani, kuzatgani va tasavvuri kengligidan dalolat beradi. Muzey zaliga ishlangan yana bir asarida “Amir Temurning To'xtamishxon ustidan qozongan g'alabasi” aks etgan. Shuningdek, “Qabul”, “Elchilarni qabul”, “Jang”, “So'ngi nafasgacha” va boshqa bir qator asarlari o'zining betakror kompozitsion yechimi bilan tomoshabinni hayrat ko'chasiga yetaklaydi.

Hozirda uning mahobatli rangtasvir asarlari Vatanimizning turli madaniy va ma'muriy binolarini bezab turibdi. Ayniqsa, 1998-yilda Toshkent shahar hokimiyatining ma'muriy foyesiga ishlangan “O'zbekistonning buyuk shaxslari” nomli asari uzoq o'tmishdan to hozirga qadar bo'lgan ulug'bobokalonlarimizni birma-bir tomoshabin ko'z oldida jonlantiradi. Zamonlar almashuvi go'yo hayot charxpalagi singari falsafiy yechimini topgan. 2002-yili O'zbekiston tarixi davlat muzeyi uchun “Amir Temur va jahon tarixi” nomli pannosi ham chuqur tarixiylik mezoniga asoslanganligi bilan tomoshabinni o'ziga jalb etadi. Xuddi shu muzey uchun ishlangan yana bir asarida esa jadidlar harakati, milliy istiqlol uchun kurashib, jonini qurbon qilgan buyuk vatandoshlarimiz qiyofalarini ko'rishimiz mumkin.

Ma'lumki, vatanni himoya qilish, uning har bir qarich yerini ko'z qorachig'iday asrash yurtimizning har bir o'g'loni uchun muqaddas burch. Shuni chuqur his qilgan rassom harbiy vatanparvarlik mavzusida ham bir qator asarlar yaratib, o'zining chin ma'nodagi vatanparvarligini namoyish etib kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi mudofaa vazirligi uchun ishlangan “Vatan uchun” nomli kartinasi harbiylarni jangovorligini oshirishga chorlovchi eng nodir namunaga aylanib ulgurdi. Bu mulohazalarni “Qal'aning ishg'ol qilinishi” asariga nisbatan ham aytish mumkin. Ammo ular orasida “Bayroq uchun” mardona kurashayotgan shijoati baland jangchilar tasviri har tomonlama mukammallik kasb etgan.

Bunday yutuqlar o'z-o'zidan kelavermaydi, albatta. Aslida har qanday asarni yaratish nihoyatda murakkab va qiziqarli jarayon. Asar g'oyasi va aksi matoga tushguniga qadar dastlab rassomning ko'z o'ngida, hayolida paydo bo'ladi. Ilk tasavvurlar oylar davomida shakllanib, yangicha ko'rinishlarga kirib, asta-sekin mukammalashib boradi. Hayoldagi obrazlar to'lib toshib, tashqariga talpina boshlagandagina bu asar qog'ozda eskiz holatida o'z aksini topa

boshlaydi. Uning zamirida ustozlar o'giti, tinimsiz hayotiy kuzatuvlar, turli muzeylar, ko'rgazmalar va arxivlardagi manbalarni izlash, o'rganish yotadi. Bu jarayondagi qanchalab qog'ozlardagi son-sanoqsiz xomaki loyihalar eskiz uchun xizmat qiladi. Asar mavzuini to'liq ochib beradigan holatlar, dinamika, drammatizm va kul'minasion nuqtani topish judayam katta mashaqatni, sabrni talab etadi. Eskizning bitishi, asarning qariyb yarmi bitishi bilan barobardir. Bunday keyingi ijodiy ishlar esa o'z-o'zidan davom etaveradi. Bu haqda rassomning o'zi shunday deydi;

- Va nihoyat, bu men uchun yanada zavqli, yanada qiziqarli va jozibalisi bu - asarni rangda, ya'ni matoda ishlash jarayonining boshlanishidir. Tabiatdagi barcha ranglar jilosini bo'yoqlarim orqali ko'rsatishimda, mening bir necha yillar mobaynida to'playotgan tajribam, shakllanib kelayotgan mahorat va o'zim topgan texnik uslubim qo'l keladi. Asarimning mavzusiga mos rang tanlayman. Chunki aynan aniq topilgan koloritgina asar mavzuini, ruhiyatini ochib, katta qudrat kasb etadi, deb hisoblayman.

Rassom ijodining asosiy maqsadi - Vatanimiz, xalqimizning shonli tarixini, urf-odati va an'analarini chuqur aks ettirish orqali tomoshabin ko'z o'ngida moziyning ibratli sahifalarini bir daqiqaga bo'lsa-da, jonlantirishdan iborat, - deb biladi.

Ijodkorning aksariyat asarlarida ko'plab qahramonlar siymolarini ko'rishimiz mumkin. Har bir qahramonning qiyofasi betakror va o'ziga xos tarzda talqin etiladi. Ayniqsa batal janridagi ishlangan asarlar judayam murakkab yechimga ega. Janchilardagi sovut, aslaha va liboslari deyarli qaytarilmaydi. Obrazlarning jonliligi, tasvirdagi figuralarning dinamik harakati faqat ungagina xos ifoda uslubidir. Chunki tirik mavjudod doimo harakatda bo'ladi, shuning uchun asarlaridagi har bir inson harakati, otlar harakati bo'lsin, rassom uchun bu katta ahamiyat kasb etadi. Aynan ana shu harakatlar tufayli asar o'zining katta ta'sir kuchiga ega bo'ladi<sup>1</sup>.

Alisher Aliqulov nafaqat mahobatli asarlar bilan shuningdek, dastgohli rangtasvir sohasidagi izlanishlari bilan ham o'z o'rniga ega bo'lib kelayotgan rassomlar sirasidan. Uzoq yillar davomida yaratgan "Sovg'a", "Dovon", "Qaytish", "Ovda", "Tong", "Yo'lda", "Ertakchi", "Layli va Majnun", "Navbat" va boshqa bir qator kartinalari uning bu boradagi yuksak mahoratidan so'zlaydi.

Kamina uning portretlari haqida ham alohida to'xtalgan bo'lardim. Bu borada u o'zining alohida ifoda uslubini yarata oldi. U yaratgan barcha qiyofalar bir-biri biriga mutlaqo o'xshamaydi. Birida yoshlik shijoati ufurib tursa, boshqasida hayot tegirmoni tufayli umrining ko'p qismini bosh berib qo'ygan qariyalarning chuqur ruhiy kechinmalar og'ushida hayot surayotganligiga guvoh bo'lamiz. Bunday lirik holatlarni uning hazrat "Alisher Navoiy", "Muhammad Sulton", "Naqqosh", "Momo", "Orol fojeasi", "Buxorolik kelin", "Buxorolik ayol yosh bola bilan", "Mashshoqlar", "Munojot" kabi asarlarida kuzatishimiz mumkin.

Qahramonimizni ko'pqirrali ijodkor dedik. Chindanda shunday, u ijod bilan birga badiiy ta'limni ham birday davom ettirmoqda. Hozirda Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti tasviriy san'at fakulteti "Mahobatli rangtasvir" kafedrasida talabalarga saboq berib kelmoqda. Bu xususda uning o'zi shunday deydi; - hozirda 1-bosqich bakalavrlarga "Kompozisiya" fanidan saboq beraman. Ular orasida iqtidorlilari talaygina. Talabalar bilan ishlash men uchun judayam qiziqarli. Har safar uchrashganimda shogirdlarim ko'zidagi ishonch, kelajakka intilish menga yanada kuch bag'ishlaydi. Kelajakda shogirdlarim orasidan ham yangi nomlar chiqishiga, ular o'zbek tasviriy san'at maktabini yana bir pog'ona yuqoriga ko'tarishga hissa qo'shishiga shubham yo'q.

A. Aliqulovning o'zining pedagogik faoliyatini davom ettirar ekan, 2011-yil Koreyaning Degu universitetida talabalarning halqaro festivalida Vatanimiz nomidan munosib ishtirok etadi.

---

<sup>1</sup> Ijodimiz haqida gapirsak. Birinchi jild T., O'zME. 2006, 14-15 betlar.

Keyinchalik Gollandiyaning Eppe shahridagi san'at maktabida mahorat darslarini o'tkazib, mahalliy tomoshabinlarda chuqur taassurot qoldiradi.

Xullass, Alisher Aliqulov keng doiradagi, turli mavzularda birdek qalam tebratayotgan noyob rassom. Uning yaratgan asarlari diapazoni chegarasiz. Shu bois ijodkorning har bir asarini o'ziga hos kashfiyot deyishga to'liq asosimiz bor.